



**Ota-onalar uchun NYSITELL  
ma'lumotlar broshyurasi**

**Nyu York Shtatining maktab tizimiga hush kelibsiz ! Nyu York Shtat Ta'lim Vazirli (NYSED) va Ikki tilli ta'lim bo'limi hamda chet tillar bo'limning (OBEWL) vazifasi hamma Nyu York Shtat o'quvchilari, ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilarni (ELLs)/ turli tillarni o'rganiyotgan o'quvchilarni (MLLs)e'tiborga olgan holda, yuqori darajadagi ta'lim samarasiga erishishni va tilni puxta o'rganishni kafolatlaydi. Biz hamma o'quvchilarni institut va kasb tayyorgarligiga qaratish uchun ularning shaxsiy ta'lim yo'nalishlari va ijtimoiy-hayotiy ehtiyojlarni turli tillarda bo'lishini ta'minlaymiz.**

#### **KIRISH**

Siz ro'yhatdan o'tkazish paytida farzandingizning uydagi tili yoki asosiy tili ingliz tilidan boshqa ekanligini belgiladiz va maktab muallimi farzandingiz ingliz tilidan qo'shimcha yordamlarga ehtomoli bo'lishni aniqlash uchun u bilan intervyu o'tkazdi. Suhbat davomida to'plangan ma'lumotlar farzandingiz ELL xizmatlarga ega bo'lishni va ELL/MLL deb aniqlanganini ko'rsatdi. Farzandingiz ushbu yordamlarga ehtimoli bo'lishi uchun unga Nyu York Shtat Ingliz Tilini O'rganiyotgan O'quvchilarni Aniqlash Testi (NYSITELL) beriladi.

#### **NYSITELLNING MAQSADI NIMA?**

NYSITELLning maqsadi har kimni uy yoki asosiy tili ingliz tilidan boshqa bo'lsa, usha o'quvchilarning ingliz tili bilimini aniqlaydi. Farzandingizning test baholariga binoan (Kirish, Rivojlanish, O'tish, Kengaytirish) u ELL xizmatlariga ega bo'lishni va ingliz tilidan qo'shimcha yordamga ega bo'lishni aniqlaydi. Test natijalari o'qituvchilar uchun ham farzandingizning o'quv dasturini uning ingliz tili bilimiga binoan rejalashtirishga yordam beradi.

#### **NYSITELL QACHON BERILADI?**

NYSITELL faqat bir marta Nyu York Shtat maktab tizimiga kiritilgandan keyin, ELL/MLL deb aniqlangan o'quvchilarga beriladi.

#### **O'QUVCHILAR QANAQA SAVOLLARGA JAVOB BERISHADI?**

NYSITELL kuydagi bo'limlardan iborat: javob tanglash, qisqa yozilgan javob, uzun yozilgan javob va og'zaki javoblar Ushbu test farzandingiz ingliz tilni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarni aniqlashga yoram beradi.

#### **TEST NATIJALARNII QANDAY BILISHIM MUMKIN?**

Farzandingizni qaysi maktabda ro'yhatdan o'tkazgan bo'lsangiz usha maktabdan farzandingiz ingliz tilidan yetgan darajasi haqida sizga xat yuboriladi. Agar farzandingiz ELL/MLL deb aniqlangan bo'lsa, siz tanishtiruv uchrashuviga taklif etilasiz va ushbu uchrashuvga turli ELL o'quv dasturlari haqida o'rganishiz mumkin bo'ladi.

## INGLIZ TILI DARAGAJARI NIMANI BILDIRADI?

Farzandingizning test bahosiga qarab u ELL/MLL deb aniqlanadi. Ingliz tili darajalari pastdagi sxemada keltirilgan:

Daraja	Ingliz tildan etgan tavsifi	ELL xizmatlariga ega
Kirish (Boshlang'ich)	Kirish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirish va tilni puxta o'rganish uchun barcha til strukturalarni qo'llamadi va hali ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirmadi.	
Rivojlanish (Past o'rtali)	Rivojlanish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirish va tilni puxta o'rganish uchun biroz til strukturalarni qo'lladi lekin hali ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirmadi.	
O'tish (O'rtali)	O'tish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini biroz oshirdi, lekin hali ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirmadi.	
Kengaytirish (Ilgor)	Kengaytirish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirdi va ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirishga yaqinlashdi.	

## TEST KIM TOMONIDAN BERILADI VA BAHOLANADI?

NYSITELL Nuy York Shtatda malakali bo'lgan muallim tomonidan beriladi va baholanadi.

## AGAR FARZANDIM SHAXSIY TA'LIM O`QUV YONALISHLARGA EGA BOLSA (IEP), NYSITELL PAYTIDA U UCHUN TEST SHAROITLAR YARATILADIMI?

Ha, NYSITELL paytida o'quvchining IEPsiga binoan u uchun test sharoitlar yaratiladi. Farzandingizning o'qituvchisi bilan farzandingiz qanaqa test sharoitlarga ega bo'lishi haqida suhbatlashing.

## FARZANDIM ELL/MLL DEB ANIQLANGANDAY KEYIN U QANAQA XIZMATLARGA EGA BO`LADI ?

Farzandingiz ELL/MLL deb aniqlangandan keyin, u quyidagi o'quv dasturlariga ega bo'ladi: Ikki til o'quv dasturi (O'tish yoki ikki hil dasturi) va/yoki Ingliz Tili Yangi Til o'quv dasturi (ENL). Farzandingiz ingliz tilidan yetgan darajasiga binoan u haftada ELL o'quv dasturida (dars vaqti) daqiqa bo'yicha qancha vaqt o'tkazishni aniqlaydi. Kuydagi sxemada darajalarga binoan daqiqalar ko'rsatilgan.

Daraja	K-8 sinflarda bir haftada daqiqa boyicha ENL o`quv dasturi	9-12 sinflarda bir haftada daqiqa boyicha ENL o`quv dasturi	O`quvchilar Ikki-til o`quv dasturida
Kirish (Boshlang`iq)	360 daqiqa	540 daqiqa	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1 ona-tili kursi</li> <li>• Kamida 2 ikki-tili soha fanlari</li> </ul>
Rivojlanish (Past O`rtali)	360 daqiqa	360 daqiqa	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1 ona-tili kursi</li> <li>• Kamida 2 ikki-tili soha fanlari</li> </ul>
O`tish (O`rtali)	180 daqiqa	180 daqiqa	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1 Ona-tili kursi</li> <li>• Kamida 1 ikki-tili soha fani</li> </ul>
Kengaytirish (Ilgor)	180 daqiqa	180 daqiqa	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1 Ona-tili kursi</li> <li>• Kamida 1 ikki-tili soha fani</li> </ul>

#### TEST NATIJALARINI O`RGANGANDAN KEYIN FARZANDIMGA UYDA DANDAY YORDAM BERISHIM MUMKIN?

- Farzandingizga uydagi tilda/asosiy tilda yoki ingliz tilda o`qing (topishlar ko`rsatdiki farzandingizning ingliz tili ko`nikmalarini rivojlash uchun unga uydagi tilda yoki asosiy tilda o`qish kerak)
- Farzandingizga uydagi tilda/asosiy tilda hikoyalarni aytib bering.
- Mahalliy kutubxonaga tashrif qiling va audio kitoblarni uydagi tilda/asosiy tilda yoki ingliz tilda tinglang.
- Maktab tomonidan rejalashtirilgan konferentsiyalarga ishtirok eting.
- Farzandingizning o`qituvchisi bilan uchrashga imkoniyat qiling va uning farzandingizga qanday yordam berishiz to`g`risida suhbatlashing.
- Farzandingiz bilan har kuni uy vazifalarni bajaring, agar imkoniyat bo`lsa farzandingiz uchun sharoit yarating.
- Oilangiz bilan muzeylarga qatnashing. Muzey gidlari siz va farzandingizga mos bo`lgan ko`rgazmalarga yo`l ko`rsatadi.
- Muzey va kutubxonalar maktabdan keyin yoki dam olish kunlarida past narxlarda yoki bepul boyitish darslarni (enrichment classes) taqdim qiladi.

ELL xizmatlar haqida savollar va tashvishlarni pastdagi emailga yuboring

[nysparenthotline@nyu.edu](mailto:nysparenthotline@nyu.edu)

ELL Ota-onalarning bevosita telefon aloqasi: (800) 469-8224

**Qo'shimcha savollar?**

Iltimos savollaringizni yoki izohlaringizni Ikki tilli ta'lim va chet tillar bo'limiga yuboring

[OBEFLS@nysed.gov](mailto:OBEFLS@nysed.gov)

Yoki qo'ng'iroq qiling: 718-722-2445

NYSITELL haqida qo'shimcha ma'lumotlar uchun ushbu veb-saytga tashrif buyuring:

<http://www.p12.nysed.gov/assessment/nysitell/>

